Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

5.Suyarov Zokirjon Bahriddinov Ulug’bek moliyaviy sektorda sun’iy intelektning o‘rni va uning moliya sektoriga ta’siri

YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISH VA FAROVONLIK ASOSI

Suyarov Zokirjon Ergashevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti katta o‘qituvchisi
Azimov Shahriyor
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Andijon fakulteti talabasi

Annotatsiya- Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning mamalakatimiz ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Yashil iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari va uning iqtisodiy taraqqiyot hamda jamiyat farovonligini taminlashdagi o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: Yashil iqtisodiyot, yashil makon, ekologik, atmosfera, energiya

Kirish.

Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavf va hatarlarni hamda ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan atrof-muhitga daql qilmasdan barqaror rivojlanishni asosiy maqsad qilgan iqtisodiy tizimdir. Yashil iqtisodiyot ekologik jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, siyosiy jihatdan qo'llaniladigan ilmiy yo'nalishga anglatadi. Iqtisodiyot yashil bo'lishi uchun nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi lozim. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o‘tishni ta'minlashni nazarda tutadi.

Yashil iqtisodiyotning an`anaviy iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyati - bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholashni anglatadi. Yashil iqtisodiyot bilan bog`liq bo`lgan stiker va ekologik belgilar an`anaviy iqtisodiyot tizimlaridan farqli ravishda iste'molchilar oldida atrof-muhitga do'stona munosabat va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo`ladi. Ko'pgina sanoat tarmoqlari globallashuv sharoitida iqtisodiyotni yashillashtirish amaliyotini targ'ib qilish uchun ekologik toza standartlarini qabul qila boshlaydi. Barqarorlik standartlari sifatida ham tanilgan bu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaruvchi odamlarga zarar yetkazmasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalardir. Ekologik toza standartlari o'rmon

Published: 24.05.2025
Cite this article: Suyarov Zokirjon Ergashevich, Azimov Shahriyor (2025). Yashil iqtisodiyot rivojlanish va farovonlik asosi. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/318
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoati yoki baliqchilik kabi iqtisodiy sohalariga asosiy e'tibor qaratishni taqazo etadi. Suv manbalari va biologik xilma-xillikni muhofaza qilishda yoki issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish kabi ekologik omillarga e'tibor qaratish yashil iqtisodiyotning asosiy xususiyatini belgilaydi. Yashil iqtisodiyot sharoitida xodimlarning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini qo'llab-quvvatlash asosiy ijtimoiy mezon bo`lib, ishlab chiqarishni va xizmat ko`rsatish sohalarini rivojlantirishning innovatsion yo‘nalishlarini izlab topishni taqazo etadi.

2019-2030-yillarga mo`ljalangan O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish to`g`risidagi strategiyasida:

Mamlakatimizda iqtisodiy tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, hamda hududlarni bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. 2024-yilning iyul oyida Toshkent shahrida "Yashil" iqtisodiyotning normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini samarali yo‘lga qo‘yish orqali innovatsion yashil investitsiyalarni qo‘llabquvvatlashga qaratilgan Yevropa va MDH davlatlarining "Yashil" iqtisodiyot bo‘yicha amaliy konferensiyasi o‘tkazildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida iqlim o‘zgarishlari sharoitida samarali, tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlashda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan muammolar mavjudligi namoyon bo‘ladi.

1. Texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

2. Davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “Yashil” mezonlarni kiritish zaruriyati yuzaga chiqmoqda.

3. Davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlariga ehtiyoj sezilmoqda.

4. Ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “Yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish davr talabiga aylanmoqda.

2019-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilarga qaratilishi dolzarblik kasb etmoqda.

Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish;

Energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni targ`ib etish.

Iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish uchun tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirib borish.

Yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini tadbiq etish.

Atrof muhitni muhofaza qilish tog`risida

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog‘lig‘iga zararli ta’sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz miqyosida “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda, davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar qimmatbaho navlarining kesilishiga muddatsiz moratoriy amal qilmoqda. Shu bilan birga, respublikada hudud rahbarlari, ekologiya va atrof-muhitni hamda huquqni muhofaza qilish organlarining e’tiborsizligi natijasida sohada o‘tgan davrda jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. Ayrim hollarda esa tabiatga va jamiyatga tiklab bo‘lmas darajada zarar yetkazilgan. Hududlarda, ayniqsa, shaharlarda havo ifloslanishi bo‘yicha holat tobora yomonlashib bormoqda, atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarning yukini kamaytirish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilmagan.

2024-yilda daraxtlar va butalarni kesilishiga e’lon qilingan moratoriyga qaramay 44 mingga yaqin, shundan 9,5 mingga yaqin qimmatbaho daraxtlar noqonuniy kesilishi natijasida tabiatga 36 milliard so‘mlik zarar yetkazilgan daraxtlarning ildiz tizimlarini beton va asfalt bilan qoplash, ularga turli elektr chiroq va reklama moslamalarini ilib qo‘yish daraxtlarning jiddiy shikastlanishiga sabab bo‘lmoqda. Jamiyatda hayvonlarga, shu jumladan, uy hayvonlari va qarovsiz hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo‘lish holatlari ko‘payib bormoqda, ularni identifikatsiyalash, vaksinatsiyalash va sterilizatsiyalashning zamonaviy tizimiga ehtiyoj sezilmoqda. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda chorva mollari nazoratsiz va tizimsiz boqilishi holatlarining ortib borishi, yer osti suvlaridan ilmiy asoslarsiz foydalanish ekotizimlarning buzilishiga, katta yer maydonlari degradatsiyasining ortishiga hamda ularning cho‘llanishiga olib kelmoqda, oqibatda iqlim o‘zgarishining ta’siri kuchaymoqda, insonlar hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘ilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi LEX.UZ
2. Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi rasmiy veb sayti

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.11.2024 yildagi 804-son
5. Suyarov Zokirjon, Shahriyor Azimov. Yashil iqtisodiyot taraqqiyot va farovonlik garovi. Образование наука и инновационные идеи в мире https://scientific-jl.org/obr Выпуск журнала №-59 Часть–9_ Декабрь –2024 19.

AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINING EKOLOGIK VA IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI

Andijon davlat texnika instituti
3-kurs k53-guruh Buxgalteriya hisobi va audit
(tarmoqlar bo‘yicha) yo’nalishi talabasi
Rustamov Xurshidbek Marufjon o‘g‘li

Annotatsiya: Mazkur maqolada ishchi kuchlarini maqsadga muvofiq holda o‘z o‘rinlariga joylashtirish, va aholini ish bilan ta'minlash va uni amalga oshirish yo‘llarini qidirib topish hamda ularni joriy qilish bilan bog‘liq tadbirlarni belgilash ijtimoiy barqarorligini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti va istiqboli ko‘p jihatdan uning a'zolari bo‘lishi buyuk yaratuvchilik qudratiga ega bo‘lgan xalqning turmushi, yashash tarzini uning faoliyatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Binobarin inson uchun mehnat qilish, ish o‘rniga ega bo‘lishdek ulug‘ ne'mat yo‘q. Shunday ekan, aholini ish bilan ta'minlash boshqacha aytganda, ularning mehnat qobiliyatlari yashash sharoitlarini hisobga olgan holda, qonun bilan cheklangan mehnat faoliyatlarga jalb qilish aholining kam daromadli qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Ishchi kuchlarini maqsadga muvofiq holda o‘z o‘rinlariga joylashtirish, va aholini ish bilan ta'minlash va uni amalga oshirish yo‘llarini qidirib topish hamda ularni joriy qilish bilan bog‘liq tadbirlarni belgilash ijtimoiy barqarorligini ta'minlashning muhim omilidir.

Aholining ish bilan bandligini amalga oshirish o‘z navbatida bir qator masalalarni yechish va muammolarni hal qilishni hech bo‘lmaganda mazkur muammolarni oldini olishni takozo etadi. Ana shunday muammolardan biri ekologik muammodir.